

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGINING INNOVATSION FAOLIYATI TUZILISHI****To'rayeva Mahliyo Qahramonovna***Navoiy viloyati, Xatirchi tumani, 16-davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti pedagog tarbiyachisi*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotida pedagogning innovatsion texnologiyalarni qo'llashining samaradorlik xususiyatlari va ularidan foydalanishda e'tibor berish zarur bo'lgan jihatlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, o'yin, innovatsiya, kreativ pedagog, kompetensiya, interfaol metodlar, globallashuv, ijtimoiylashuv, jamiyat, integral yondashuv, loyihami ta'lism, rivojlantiruvchi ta'lism, shaxs.

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligidagi ta'lism sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qilinayotgan barcha islohotlardan ko'zlangan maqsad – barkamol insonni voyaga yetkazish, yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta'lism tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta'limga keyingi bo'g'lnlari salohiyatni mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lism tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lism tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lism sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi".

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta'lism-tarbiya berishning asosini o'yinli texnologiyalar tashkil qiladi. Bu yoshdagagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi bois – u ta'lism texnologiyasi sifatida tatbiq etilgan. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faolligi va tasavvuri tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Zamonaviy ta'limga xos muhim sifatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillardidan boshlab jiddiy o'rganila boshlangan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan.

Innovatsion faoliyatning umumiy jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.KanKalik, S.I.Kuzmina, V.A.Slastyonin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. I.Shumpatter va N.Kondratevlar esa innovatsiya tushunchasining ilk va ulkan nazariyotchilari hisoblanadilar. K.Angelovskiy, V.A.Slastyonin va V.I.Slobotchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqqan bo'lsa, rossiyalik olimlar A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va boshqalar innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborlarini qaratdilar.

Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularga pedagog olimlardan N.Azizxodjayeva, B.Farbemon, N.Sayidahmedov, K.Zaripov, M.Ochilov, O'.Tolipov, M.Usmonboyeva, M.Jumaniyozova va boshqalarni keltirish mumkin.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Shuning uchun mакtabgacha ta'limgagi innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan bog'lanib ketgan. Ammo ularni bir xil qarash deb bo'lmaydi. Chunki innovatsiyalar turlicha yo'nalishda foydalaniлади. Mакtabgacha ta'limg tashkiloti pedagogi o'z faoliyatini prinsipial amalga oshirish uchun: samarali (mavzuga yo'naltirilgan), tejamkor (shaxsga yo'naltirilgan), hamkorlik texnologiyalariga ega bo'lishi lozim. Tajribali kreativ pedagog ushbu uslublar asosida o'zining "mualliflik" texnologiyasini yaratishi mumkin. Bunda, unga avval egallangan bilimlari va tarkib topgan dunyoqarashi turtki bo'ladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar yuzaga chiqishi ta'rixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ta'limg jarayoniga kirib kelishida g'oyalari banki muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, italyalik shifokor Mariya Montessori asli kasbi tarbiya bilan bog'lanmasada, o'zining boy tafakkuri orqali o'ziga xos ta'limg usulini tadbiq etdi. "Usul har bir bolaning noyobligi aksiomaga asoslanadi va ta'limg tarbiya uchun maxsus yondashuvni talab qiladi. Ta'limg tizimi uch qismidan iborat: o'qituvchi, bola va atrof-muhit" deyiladi uning ta'lomitida. Uning nazariyasi uch asosiy tamoyilga asoslangan:

- bolaning maksimal erkinligi, rivojlanish va ta'limg taraqqiyoti va imkoniyatlarini tanlash;
- individual trening dasturini yaratish;
- o'qituvchining minimal aralashuvi va o'quv natijalari bo'yicha an'anaviy avtoritar nazoratning yo'qligi.

Mакtabgacha yoshdag'i bolalar ko'rgazmali tasavvur orqali anglash davrida bo'lganligi bois, barcha yangi bilimlar ko'rgazmalilikka asoslanadi. Bu yoshdag'i bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalananadilar. Chunki mazkur metodlardan foydalanish orqali har bir bola o'zining individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi; mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi; atrof-muhit hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi; bolani ham ruhan, ham jismonan rivojlantirishda xizmat qiladi; bolalarni o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirishga o'rgatadi; qiyin vaziyatlar tug'ilganda mustaqil ravishda muammoga yechim topishga o'rgatadi. Shu bilan birgalikda bolalarning nutqini ravon bo'lishida, o'z fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish imkon yaratiladi.

Interfaol metodlar mazmuniga ko‘ra bolalar faol o‘zaro ta’sir qilish sharoitida o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Birgalikdagi faoliyatdan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni egallashda qiziqarli va tassurotga boy bo‘lishini ta’milaydi. Faqatgina tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari va yosh jihatlariga moslashtirgan holda foydalanishi lozim. Bolalarning rivojlanishiga qo‘yilgan “Davlat talablari” va “Ilk qadam” davlat dasturida bolaning umumiy va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo‘nalishlari belgilab berilgan. Unga ko‘ra maktabgacha 6-7 yoshdagi bolaning umumiy kompetensiyalari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatildi:

➤ Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

➤ O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

➤ Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan axloq-odob normalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.

➤ Bilish kompetensiyasi – atrof-muhitni ongli ravishda idrok qila olish va bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta’limiy jarayonida qo‘llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o‘yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, so‘z o‘yinlari kommunikativlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur. Hozirgi davrdagi inqilobiy hodisalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ijtimoiy munosabatlardagi nomutanosibliklar global muammolardek jamiyat ravnaqiga aks ta’sir etmoqda. Agarda erta yosh davridan bolalarda ijtimoiy hayot qadriyatlari shakllantirib borilsa, kelajakda sog‘lom hayot tarzini yaratishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

## . NATIJALAR

Ta’lim innovatsiyasi deyilganda avvalo mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Texnologik yondashuv asta-sekin takomillashib innovatsion xarakterga ega bo‘ldi. Masalan, maktabgacha ta’lim tizimida an’anaviy yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar sistemasiga e’tibor berilganda, bu faoliyatda tarbiyachi obyekt bola subyekt rolini o‘ynagan edi. Ya’ni, bola faqatgina tinglovchi, tarbiyachi notiq sifatida gavdalangandi. Ammo barcha tajribalar ta’lim berishdagi bunday harakatlar samarali bo‘la ololmasligini tasdiqladi. Natijada ta’limni samaraliliginib belgilay oladigan yondashishlarni yuzaga keltirish zarurati tug‘ildi. Shuning uchun texnologik nazariyaning vujudga kelishi uchun turtki bo‘ldi. Har qanday yangilik ehtiyoj natijasida yuzaga keladi. Ehtiyoj qanchalik yuqori bo‘lsa, uning samaradorlik darajasi ham ko‘tarilaveradi.

Ta’lim innovatsiyalari deyilganda, ko‘z oldimizda albatta yangi pedagogik texnologiyalar gavdalanadi. Pedagog ta’lim jarayonini innovatsiyalashda texnologiyalarni qo‘llashni nazarda tutadi. Innovatsiya yangilik kiritish bo‘lsa, texnologiya – mahorat, san’at sifatida gavdalanib, innovatsion texnologiyalar yuzaga keladi. Demak, tarbiyachining innovatsion faoliyati, bu uning pedagogik mahorati belgisidir. Mahorat qanchalik yuksalishda

bo'lsa, novatorlikka aylanib boradi. Innovatsion texnologiyalardan foydalana olish uchun tarbiyachi-pedagog quyidagi bilimlarni o'zida mujassamlantirishi lozim:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;
- Yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lishi;
- Ta'lif jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga mos keladigan didaktik o'yinlar, interfaol usullarni tanlay bilish qobilyati;
- Ilg'or pedagogik yangilanayotgan g'oyalar bilan tanishib borish;
- Bilimlarning ko'nikma va malakaga aylantirish asosida o'z kasbiy pozitsiyasini shakllantirib borish;
- Ta'limi faoliyatlarda harakatlari o'yinlardan foydalana olish;
- Turli yo'nalishdagi bilimlarni integratsiyalashgan holda amaliyotda o'rgatishga erishish.

"Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi." - degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya.

Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtaida do'stona muhitni yaratish, bolalarni yangiliklarga qiziqtirish; o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtira olish, ta'limi faoliyatga nisbatan munosabatni o'zgartira olish kabilarni aytish mumkin.

Innovatsion texnologiyalarning turlari quyidagicha tasniflangan:

- bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lif;
- rivojlantiruvchi ta'lif texnologiyalari;
- o'yinli ta'lif texnologiyasi;
- loyihibiy ta'lif texnologiyasi;
- muammoli ta'lif texnologiyasi;
- axborot va aloqa vositalaridan foydalanish.

Innovatsion texnologiyalarning har bir turi tarbiyalanuvchilarda faqatgina yangi bilim hosil qilishga xizmat qilibgina qolmasdan, balki ularda har tomonlama rivojlanish mexanizmlarini tarkib toptirishda xizmat qila oladi. Ma'naviy savodxonligi sust bo'lgan inson hayot davomida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolishi mumkin. Ayniqsa ommaviy madaniyat unsurlaridan saqlanishda ham ruhiy barkamollikning yoshlikdan shakllantirilishi g'oyatda zarur. Shuning uchun ta'lif innovatsiyalarida tarbiyaviy ta'sir elementlari uyg'unlashtirilishiga e'tibor beriladi. Shuningdek, innovatsion ta'limi texnologiyalar qatoriga integral loyihalashgan faoliyat turini kiritish zarur. Chunki bunday yondashuvga tayanib ko'p tomonlama yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin.

## XULOSA

Bugungi kunda maktabgacha ta'lif sohasida ommalashib borayotgan ta'limi faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Maktabgacha yosh davrida o'yin ustuvor ahamiyat kasb etganligi bois, bolalar bilan interfaol metodlar o'yin tarzida olib boriladi. Tarbiyachilarni innovatsion ta'limga kirib borishlarida eng maqbul o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish va dastur sifatida joriy etish pedagogik muammo hisoblanadi. Bugungi kungacha eng ustuvor

o'yinlar mazmuniga asoslanib, ularni takomillashtirish va ta'lif - tarbiyaviy xarakterdagi talablarga moslashgan innovatsion o'yinlar texnologiyasi tuzilib, qo'lanma sifatida barcha maktabgacha ta'lif tashkilotlariga tatbiq etilishi lozim. Ana shunda barcha mutaxassislar bolalar bilan faoliyat olib borishda qiyinchilikka kamroq duch keladilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <http://ma'rifat.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020
2. V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost» - M. 1997
3. <http://arxiv.uz> referatlar Tarbiyachining innovatsion faoliyati 2019 yil
4. <https://uz.unistica.com> Montessori metodikasi
5. I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lif muassasasining davlat o'quv dasturi Toshkent 2018 y 9-10 betlar
6. <https://baxtiyor.uz> Ta'lifda innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish
7. Abduqodirov A., Begmatova N., Maktabgacha ta'lif muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. -Qarshi, "Nasaf". 2011 y. 57 b.
8. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. "Fan, ta'lif va amaliyot integratsiyasi" FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232b <https://biling.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/588>
9. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha ta'lifda integral darslar – innovatsion loyiha sifatida. "Science and Innovation". International sicientific journal. <https://doi.org/> 10.5281/zenodo.6626043 2022 y., 2-son. 292 b.